

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PREZIDENTLIK INSTITUTI VA UNING
KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI**

Rafikova Muattar Ravshanovna

*Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrası dotsenti,
bojxona xizmati podpolkovniki, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doktori (PhD)*

Axatov Saida'zamxon Laziz o'g'li

*Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi
Bojxona institute 1-kurs kursanti*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.08.2024

Revised: 21.08.2024

Accepted: 22.08.2024

*Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi
siyosiy-huquqiy tizimida Prezident institutining
tutgan o'rni, konstitutsiyaviy maqomi va amaldagi
vakolatlari atroflicha tahlil qilingan..*

KALIT SO'ZLAR:

*Prezident instituti,
konstitutsiyaviy
maqom, vakolat, davlat
boshqaruvi, siyosiy
javobgarlik,
konstitutsiyaviy
nazorat, davlat rahbari,
huquqiy tizim...*

KIRISH. Prezidentlik instituti tarixi

Ma'lumki, Sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari orasida O'zbekistonda birinchi bo'lib prezidentlik lavozimi joriy etilgan. Bunga o'z navbatida, Ittifoq hududida o'sha davrlarda hukm surgan murakkab vaziyat hamda ittifoqdosh respublikalarda mustaqillik uchun kurashlarning yanada kuchayib ketishi zamin yaratgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda prezidentlik institutining shakllanishiga birinchidan,

O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq, davlat hokimiyatining oliy organi

hisoblangan Oliy Sovet Ittifoq hududida vujudga kelgan vaziyatlarga nisbatan ta'sir ko'rsata oladigan tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega emasligi, ikkinchidan, Ministrlar Soveti faoliyatida yuzaga kelgan kamchiliklar sababli, mamlakatda qonunlarning ijrosini samarali tarzda tashkil etilishi uchun yakka shaxs

javobgarligiga ehtiyoj paydo bo'lganligi, uchinchidan, tarqalib ketayotgan Ittifoq

markazi o'rniga hammani birlashtirib, o'zaro uyushtirib turadigan yangi hokimiyat uchun zarurat paydo bo'lganligi sabab bo'lgan.

Asosiy qism

1. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining tashkil etilishi.

Shu sababdan, 1990-yil 24-mart kuni 12-chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy

Sovetining birinchi sessiyasida demokratik jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsion tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini kafolatlash, O'zbekiston Respublikasi davlat

hokimiyati va boshqaruvi organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirish maqsadida «O'zbekiston Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston SSR

Konstitutsiyasiga(Asosiy Qonun)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimi

ta'sis etildi. Shu kuni Oliy Sovet deputatlari Respublika KP MKning 1-kotibi

I.A.Karimovni O'zbekiston SSRning Prezidenti etib sayladi va bu mustaqillikka erishish yo'lida katta qadam bo'ldi. [3]

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi.

Konstitutsiyaning 89-moddasida quyidagicha belgilangan:

“O'zbekiston Respublikasining Prezidenti — davlat boshlig'i, xalq birligining, Konstitutsiyaning, inson huquqlari va erkinliklarining, respublikada ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari kafolatchisidir.”

Shuningdek, Prezident Konstitutsiyada belgilangan tartibda saylanadi, o'z vakolatlarini mustaqil amalga oshiradi va bevosita xalq oldida siyosiy javobgarlikka ega. U davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularning o'zaro hamkorligiga rahbarlik qiladi.

3. Prezidentning asosiy vakolatlari

Prezident vakolatlari konstitutsiyaviy jihatdan quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

a) Qonunchilik sohasidagi vakolatlar:

Qonunlarni imzolaydi yoki parlamentga qaytaradi (vetoga qo'yish);

Oliy Majlis palatalariga murojaatnoma yo'llaydi;

Respublika referendumini chaqiradi.

b) Ijroiya hokimiyat sohasidagi vakolatlar:

Vazirlar Mahkamasini shakllantiradi;

Vazirlar, hokimlar va boshqa mas'ul shaxslarni tayinlaydi va ozod qiladi;

Davlat boshqaruvi tuzilmasini isloh qiladi.

c) Tashqi siyosat sohasidagi vakolatlar:

Xalqaro shartnomalarni imzolaydi;

Diplomatik missiyalarni tayinlaydi va chaqirib oladi;

Qurolli Kuchlar Bosh Qo'mondoni hisoblanadi.

d) Sud-huquq sohasidagi vakolatlar:

Oliy sud raisi va boshqa sudyalarni tayinlaydi;
Afv qilish va amnistiya e'lon qilish huquqiga ega;
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarini tayinlaydi.

4. Prezident vakolatlari ustidan konstitutsiyaviy nazorat

Prezidentning vakolatlari Konstitutsiya bilan chegaralangan. Ularning qonuniyligi ustidan nazoratni Oliy Majlis, Konstitutsiyaviy sud va ommaviy axborot vositalari amalga oshiradi. Konstitutsiyaga ko'ra, Prezident harakatlari qonunlarga muvofiq bo'lishi, davlat manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, Prezident faoliyatini muvozanatlashtiruvchi organ sifatida parlament muhim rol o'ynaydi.

2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Prezident qarorlarini parlament bilan muvofiqlashtirishning huquqiy asoslari mustahkamlandi. Bu demokratik boshqaruvning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

5. Prezidentning siyosiy va huquqiy javobgarligi

Konstitutsiyaning 98-moddasiga ko'ra, Prezident o'z faoliyatida Konstitutsiyaga rioya etmaslik yoki og'ir jinoyat sodir etgan taqdirda Oliy Majlis tomonidan impichment (vazifasidan chetlatish) jarayoniga tortilishi mumkin. Bu — davlat rahbarining faoliyati ustidan muhim siyosiy va huquqiy nazoratdir.

Prezident umumxalq tomonidan saylanganligi sababli bevosita xalq oldida siyosiy javobgarlikka ega. Bu esa uning harakatlariga nisbatan doimiy huquqiy va axloqiy baho berilishi demakdir.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (yangi tahriri) XIX bobida belgilab berilgan

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

=====

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

2) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

3) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

4) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

5) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalarining rahbarlarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

6) O'zbekiston Respublikasi xalqiga hamda Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

7) vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzadi hamda tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

8) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

9) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin lavozimga tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi;

10) qo'mitalar, agentliklar va boshqa respublika davlat organlari rahbarlarini qonunchilikka muvofiq lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullaganidan keyin lavozimga tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi;

12) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati bilan maslahatlashuvlardan keyin O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisini lavozimga tayinlaydi va uni lavozimidan ozod etadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tarkiblariga nomzodlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining

=====

rahbari va respublika monopoliyaga qarshi organining rahbari lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislarini va rais o'rinbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

15) viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki hokim sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining va hokimlarning hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunni o'z e'tirozlari bilan takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) alohida hollarda (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiya) fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnomalar kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga boshchilik qiladi, o'z vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat-kengash organlarini va boshqa organlarni shakllantiradi;

=====

25) ushbu Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.[2]

O'zbekistondagi Prezidentlik institutining o'ziga xosligi shundaki, bizda davlat boshlig'ining vakolatida fuqarolarning huquqlari va erkinlariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishiga kafillik belgilanganligi, davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlashi, Prezident saylovi kuni Konstitutsiyada aniq belgilab qo'yilgani, saylov komissiyalarining a'zolari saylovdan manfaatdor biron bir partiya a'zosi, yoki nomzod, uning ishonchli vakili bo'lishi mumkin emasligi, Prezident saylovining moliyaviy ta'minoti davlat mablag'lari tomonidan qoplanishi va teng taqsimlanishi, nomzodlardan hech qanday saylov garovi, saylov fondini tashkil etish talab qilinmasligi, nomzodlarga saylovoldi tashviqotni o'tkazish uchun davlat hisobidan teng e'fir vaqti va bosma maydon ajratilishi, yig'ilishlar va uchrashuvlar o'tkaziladigan vaqt hamda joy haqida saylovchilarga barvaqt xabar qilinishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning rahbarlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallari olishda yordam ko'rsatishlari shartligi kabilarda ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda prezidentlik instituti O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishining asosiy omili bo'ldi, respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikka prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildirdi hamda prezidentlik instituti qaysidir ma'noda davlat mustaqilligi kafili hamda davlat ramziga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi(155ta modda, 27ta bob, 6ta bo'lim). 2023-yil//30-aprel. [2]
2. Saidov A.X. – *Konstitutsiyaviy huquq asoslari*. – Toshkent: Adolat, 2022-yil [3]
3. Tajixanov U, Saidov A. Davlat va huquq nazariyasi//Darslik//-O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001.-B. 288. [1]
4. www.lex.uz – Qonun hujjatlari m